

Bekobod shahar
3-umumta'lim maktabi
Boshlang'ich sinf o'qituvchisi
Normatova Sanobarning
Matematika fanidan 1 soatlik
DARS ISHLANMASI



Mavzu: O'tilganlarni mustahkamlash.

Ta'limiy maqsad: o'tilgan mavzu haqidagi bilim, ko'nikma va malakalarini mustahkamlash.

Tarbiyaviy maqsad: o'quvchilarni sog'lom bo'lishlari, ozodalik va tabiatni sevishni, asrashni shakllantirish.

Rivojlantiruvchi maqsad: o'quvchilarni og'zaki va yozma nutqini shakllantirish.

Dars turi: mustahkamlash.

Dars jihozi: ko'rgazmali qurollar, darslik.

DARSNING BORISHI

O'tilgan mavzuni mustahkamlash.

1. Sonlarni o'sib boorish tartibida sanash.
2. Sonlarni inglizcha sanash.

Darsning musobaqa tarzida olib boorish.

- 1-guruh: "Topqirlar";
- 2-guruh: "Bilimdonlar";
- 3-guruh: "Zukkolar".

Har bir guruhga topshiriqlar beriladi.

1-topshiriq.

1-guruh: 3, 9, 7 sonini hosil qilish.

2-guruh: 6, 5, 10 sonini hosil qilish.

3-guruh: 4, 8, 2 sonini hosil qilish.

2-topshiriq.

Jim-jitlik o'yini. Abaklar yordamida ishlash.

1. $8-3=5$

$2+7=9$

$10-2=8$

2. $9-2=7$

$5+3=8$

$6-3=3$

3. $10-7=3$

$3+6=9$

$9-4=5$

3-topshiriq.



Shar ishirish o'yini. Sharlarni katta-kichikligini taqqoslash.

Yangi mavzuni bayoni.

1. Mavzu haqida tushuncha berish.

2. Darslik bilan ishlash.

1-misol. Hisoblang.



Og'zaki hisoblash.

2-masala. Og'zaki bajarish.

Murotda 4 ta sa'va bor. Akbarda esa undan 3 ta ortiq sa'va bor. Akbarda nechta sa'va bor?

Murotda – 4 ta sa'va

Akbarda - ? , 3 ta ortiq.

1. Masalani o'quvchilarga xo'r bo'lib o'qitish.

2. Masala mazmunini tushuntirish.

3. ifoda tuzish va yechish.

$$4+3=7 \text{ (ta)}$$

3-misol. Yozma.

Har bir guruh navbat bilan doskada yechish va daftar bilan ishlash.

$$2+7 \quad 8-2 \quad 6-1 \quad 5+2$$

$$9-2 \quad 8+0 \quad 5+1 \quad 7-2$$

Dam olish daqiqasi.

4-masala.


Rasm asosida masala tuzish va yechish.



Hammasi — 9 ta

5-misol. Jadvaldan javobi bir xil bo'lgan misollarni toppish. Har bir guruh to'g'ri topilgan javobi orqali archani bezash.

$4+4$	$7-4$	$9-5$	$7+3$
$8-5$	$3+4$	$6+2$	$9-2$
$3+1$	$8+2$	$1+4$	$8-3$



Har bir guruhni to'plagan ballarini e'lon qilish.
O'quvchilarni rag'batlantirish.

